

## ASQAD MUXTORNING “TUNDALIKLAR”DA MUALLIF USLUBI VA MAHORATI

*Nishonova Shohsanam Odiljon qizi  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi yetakchi mutaxassis  
shohsanam.n95@gmail.com*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda internet rivojlangani sayin, bosma nashrlarni teraji sezilarli darajada tushib bormoqda. Bu borada shoir-yozuvchilarning ijodini, muharririlik mahoratini o'rganish, ijod labaratoriyasini tadqiq qilib, yangi ilmiy xulolsalar berish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Asqad Muxtor publitsistikasi ko'lami ilmiy ish uchun munosib asos desak mubolag'a bo'lmaydi.

Publitsistik asarlarini mazkur yo'nalishda tahlil etishda jurnalistikada mavzu, sarlavha tanlash mahorati, undagi g'oya, ijtimoiy obraz topish kabi nazariy savollarga yechim topishda xizmat qiladi. Shu boisdan ham milliy jurnalistikamizda yaqin o'tmishda ijod qilgan Asqad Muxtor kabi so'z kishilarining mumtoz yo'llarini o'rganish davr talabi hisoblanadi. Xususan, mazkur tadqiqotimizda Asqad Muxtor ijodining bir qismi hisoblangan publitsistikasiga kasb nuqtayi nazardan yondashuvimiz ham dolzarb masalalardan biridir.

**Kalit so'zlar:** Tundaliklar, guliston, muharirlik, adabiyot.

**Annotation:** Today, with the development of the Internet, the weight of printed publications is decreasing significantly. In this regard, it is more important than ever to study the creativity of poets-writers, their editorial skills, research the laboratory of creativity and give new scientific conclusions. It is no exaggeration to say that the scope of Asqad Mukhtar's journalism is a worthy basis for scientific work.

In the analysis of journalistic works in this direction, it serves to find solutions to theoretical questions such as the skill of choosing a topic, title, idea in it, and finding a social image in journalism. For this reason, it is the demand of the time to study the classic ways of people of words like Asqad Mukhtar, who created in our national journalism in the recent past. In particular, in this research, our approach to journalism, which is part of Asqad Mukhtar's work, from the point of view of profession is one of the urgent issues.

**Key words:** Tundaliks, Gulistan, editorship, literature

Asqad Muxtorning “Tundaliklar”lari publitsistikada yangi yo'nalish ochib bergen asar. U sohada tub burulish yasab, ixcham satrlarda katta fikrlar aytish, hayot haqiqatlarini donishmadona oshkor qilib, hayotning azaliy jumboqlari atrofida qiziq bahslari borligi bilan ham o'rinnlidir. Asqad Muxtor har qanday murakkab mavzularda shunday samimiyl, shunday donishmandona soddalik bilan fikr yuritadiki, uning yetuk publitsist, iste'dodli shoir ekanligidan tashqari eng avvalo inson, shu xalqning samimiyl, chin farzanli ekanligini his qilasiz. Unda tabiat, yechimini kutib yotgan ona tilimizning og'riqli masalalari, ona tabiatning ingroqlari qalamga olingan. Har bir satrini o'qir ekasiz, mana,

uslub, mana, mahorat deyishingiz tabiiy. Asarning kompozitsion tuzilishida didaktizm kuchli. Unda ham romantik, ham realistik qarashlar o‘z ifodasini topgan. Yoziqlarining tag zamirida inson tabiatning bir qismi ekanligi, unga hamisha yaxshi e’tibor berib, Ka’baga qiyoslangan ko‘ngildar tortib atrof-muhitgacha, jonivorlardan tortib inson qo‘li bilan yaratgan moddiy-madaniy ashylargacha ziyon etkazmaslik haqidagi gumanistik g‘oyalar yotadi. Shuning uchun ham Asqad Muxtorning “Tundaliklar” asari XX asrning ikkinchi yarmida sohamiz taraqqiyoti tarixida ko‘rkam bir sahifa bo‘lib qoladi.

Asqad Muxtor hech qachon birovga to‘g‘ridan-to‘g‘ri nasihat qilish yo‘lidanbormaydi. U har doim talabni o‘ziga qo‘yadi. Har qanday vazifani sidqidildan bajaradi. Boshqlarniyam shunday bo‘lishga undaydi. Yuqorida yozganimizdek, zamondoshlari xotiralarida ham fikrimizni tasdiqlagan. Ha, u sermulohazakor shaxsiyatida hayotdagi barcha narsalar insonning zamona talab etayotgan ma’naviy kamolotga erishishi uchun ibrat bo‘ladigan ahamiyat kasb etadi. Adib hamma vaqt ulardan shu mohiyatni izlagan. Xuddi jamiyat oldidagi mas’uliyatni yuksak darajada bajara olmayotgandek, o‘z-o‘zidan qoniqmaslik tuyg’ulariga, mulohazalariga berilib badiiy tadqiqot olib borgan.

Aslida komil insonlar hech qachon o‘zlaridan qoniqmaydilar. Aslida, tiriklikning o‘zi tizginsiz sinov dovonlaridan iborat bo‘lgan oxiri yo‘q silsila. Bu–tug‘ilish bilan o‘lim oralig‘idagi ma’naviy-intellektual komillikka erishish bosqichlaridir. Shu ma’noda, ma’naviy komillik belgilari axloqiy go‘zallikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri sifatida milliy mentalitetimizda o‘zgacha qadrlanadi. Ana shu ma’naviy komillik belgilari yaxshilik qilish, mehr-oqibatlilik, sadoqat va h.k. bilan axloqiy go‘zallikni birlashtirib, bog‘lab turuvchi katta bir nur bor. Bu ko‘ngil hurriyati, shaxsning ma’naviy erkinligidir. Qachonki, dil erkinligi burch va mas’uliyatga, shaxs faoliyati – tabiatining tarkibiy qismiga aylansagina, u reallik, haqiqat ma’nosiga ega bo‘ladi. Demak, tafakkur erkinligi axloqiy go‘zallikka aylanishi uchun ijtimoiyadolat tuyg’usi real hayotiy mazmun kasb etishi, asl haqiqat maqomiga ega bo‘lishi taqozo etilar ekan. Qishloqda ulg‘ayganimiz uchunmi, onam ovqat tayyorlasa doim bir bo‘lag go‘sht, bir bo‘lak kartoshkani ortiqcha solardilar va doim bu qo‘schnini yoki mehmonning haqqi ekanligini eslatardilar. Ha, biz shunga odatlangan edik. Ammo megapolis joyda yashaganimizgami, bu an’analalar faqat shirin xotiraga aylanib borayotgandi. Asqad Muxtorning “Tundaliklar”i orqali inson tirik ekan hamisha yaxshilik qilishi kerakligini bot-bot eslatibgina qolmay, yaxlit bir asar yozdi.

U milliy qadriyatlarimizni unutmagan holda jahonga bo‘ylash tarafdoi bo‘lgan. chunki umr suvdek oqib, yeldek uchib bormoqda. Yashashga, yaxshilik qilishga ulgurish lozim. “Vaqt o‘tyapti!” deymiz sal hazinlik bilan. Bu gapni inson o‘zini ovutish uchun o‘ylab topgan. Aslida biz o‘zimiz o‘tayapmiz...” (Tundaliklar”, 17-bet).

Naqdar achchiq haqiqat! Bunda faqat insongina emas mazkur jarayonda jamiyatdagi ijtimoiy tuzumlarni hamda turmush tartiblarini almashtirishda, shuningdek, ezgulik,adolat, go‘zallik ideallari asosida qayta bunyod etishda insonning yaratuvchilik faoliyatiga asosiy urg‘u berilayotir. Xususan, inson xarakteri, tafakkur madaniyati

o‘zgarmas ekan, jamiyat tartiblariga, tuzumlarga, demakki, hayot tarzimizga o‘zgartish kiritish mumkin emas. Inson erkin fikrlashi hamda faol harakatda bo‘lishi uchun ko‘nglida katta yorug’lik bo‘lishi lozim. Bu, inson ma’nan erkinlikka erishmay turib, jo‘shqin yaratuvchilik faoliyatini namoyon eta olmaydi, degan so‘zdir.

Demak, Asqad Muxtor estetikasida, shu jumladan “Tundaliklar” turkumiga kirgan qaydlarida baxt uchun kurash – bu insondagi insoniylik xususiyatlarini namoyon etish uchun serzahmat faoliyat ko‘rsatish demakdir. Insonlik mohiyati ham ana shu benazir xususiyatlar bilan omuxtalikda o‘zligini ko‘rsatadi. Chunonchi, birinchidan, inson tug’ilgan asnordan e’tiboran ko‘nglida nur yashiringan bo‘ladi. Bu – ilohiy bunyodkorlik, hayotsevarlik yorug’lidir. Shaxs ko‘nglidagi mazkur yaratuvchilik nuri fe’li-faoliyatidagi komillik belgilarini yoritib, ko‘z-ko‘z etib turadi. Ikkinchidan, shaxsning ma’naviy-intellektual faoliyatidagi ijodkorlik fazilati, hayotni yanada go‘zallashtirishga qaratilgan bunyodkorligi insoniylik mohiyatini ko‘rsatuvchi bir mezondir. Mazkur ijtimoiy baho inson va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik robitalarini ham asoslaydi. Ya’ni, shaxs o‘zini ma’nan go‘zallik xislat-fazilatlari bilan nechog‘liq jilolantirar ekan, u mansub jamiyat ham shunchalar insoniydir. Shunchalar gumanistik mazmunini ko‘rsata boradi. “Bir qolipdagi tipovoy imoratlar, bir qolipdagi shaharlar xuddi shunday bir qolipdagi odamlar va bir qolipdagi fikrlovchilarining paydo bo‘lishiga yordam beradi” (“Tundaliklar”, 13-bet); “Dehqon mehnati – hayotning ilohiy aqidasi”; “Talant dialektik mohiyatni ochadi, o‘rtamiyonalik eklektika darajasida qoladi”; “Har bir Shaxs – mustasnodir” (“Tundaliklar”, 12-bet); “Odamlar seni bilmasa ham, sen odamlarni bil” (“Tundaliklar”, 13-bet).

Asqad Muxtor faqat yozish bilan cheklanib qolmay, jahon adabiyotning yetuk namoyondalarining asarlarini ham tarjima qilgan. Masalan, tarjimonlik faoliyatining cho‘qqisi qadimgi yunon dramaturgi Sofokl yaratgan “Shoh Edip” tragediyasi bo‘ldi. Shoh Edip rolini ijro etgan zabardast aktyorimiz “Shukur Burhonovning “Shoh Edip” tarjimasi haqida aytgan gaplari hali-hali qulog‘im ostida yangraydi: “Bu Asqad Muxtor, – degan edi Shukur aka bir kuni menga, – balo ekan. Pyesani qiyomiga keltirib tarjima qilibdi. Maza qilib yodladim, huzur qilib o‘ynayapman. Tavba, qayoqdan topdi-ya shuncha chirolyi so‘zlarni?”. Asqad Muxtor tarjima qilgan barcha asarlarning tili har bir o‘quvchiga ma’naviy va ruhiy zavq beradi. Shuning uchun uning ijod matabiga qayta-qayta murojaat qilaveramiz. Har o‘qiganda hayratlarimiz ortib boraveradi. U qaysi janrda ijod qilmasin so‘zga vijodonan yondoshganligini, xiyonat qilmaganini anglayimiz.

Asqad Muxtor yaratgan har bir esseda uning o‘ziga xos fazilati, ijodiy dadillik, puxta nazariy bilim, mustaqil nuqtai nazar, qizg‘in munozaralarga o‘chlik, fikrni ehtiros bilan ifodalash fazilati yaqqol sezilib turadi. Bular har bir tanqidchiga suv va havodek zarur fazilatlardir. Tanqidchi uchun “birovdan nido chiqishini kutib” yurishdan yomoni yo‘q. U hayotdagi, jamiyatdagi, adabiyotdagi salbiy va ijobjiy tomonlarni, o‘zgarishlarni boshqalardan oldinroq anglab, ijodiy dadillik bilan qalamga olib hayotga targ‘ib qilishi lozim. Asqad Muxtor adabiy-tanqidiy qarshlarida o‘ziga xos mustaqillik, ya’ni boshqalarda uchramaydigan kuzatishlar, fikr-mulohazalar, ijodiy dadillik, o‘z fikrini

ochiq-oydin aytishga bo‘lgan ishtiyoq, hayotiylik, fikr yuritilayotgan obyektga nisbatan tanqidiy fikrlashning ustunligi yorqin sezilib turadi. Shu o‘rinda L.Qayumovning quyidagi fikrlarini aytib o‘tish o‘rinlidir: “Taqnidchi va adabiyotshunoslarimizga goho ijodiy dadillik va mustaqillik yetishmay qolishi ham kelishib bo‘lmaydigan holdir. Yaxshilab o‘rganilgan va rasman baholangan hodisalar, shaxslar asarlarga zo‘r qiziqish bilan qarash va ayni paytda hali kopchilik biron bir narsa demagan adabiy faktlar va jarayonlarga indamay turishning sabablari shunda emasmi? Boshqa kimdir birovdan nido chqishini kutib o‘tirmay, to‘gri va isbotli fikr bilan o‘sha asarlar haqidagi ko‘pchilik fikrini shakllanitirish adabiyotshunos yoki tanqidchining vazifasi emasmi? Ehtimol, xuddi mana shu sabablarga ko‘ra adabiyotshunoslarimiz va tanqidchilarimizning tadqiqiy doiralariga, asosan, bizga yaxshi ma’lum bo‘lgan, adabiyotda faol va ta’sirchan kuch bo‘lgan ba’zi yozuvchilarning ijodi chetda qolib kelayotgandir”. Shu o‘rinda milliy prozamiz haqida fikr bitib shunday deydi: “Ammo, mening kuzatishimcha, o‘zbek romanchiligining tajribasi shuni ko‘rsatyaptiki, ikki-uch jildli, ya’ni davomli asarlarning faqat birinchi kitobi yaxshi chiqmoqda. Vaholanki, asar davom etgani sari yuksakroq ko‘tarilishi kerak. Lekin afsuski, prozamizda bunday asarlarni bilmayman. Buning sababi bor albatta. Sabablaridan biri – asarni avvaldanoq bir necha jildli qilib rejalashtirmsandan, keyingi kitoblarni yozish fikri birinchisini nashr etgandan keyin tug‘ilganligida bo‘lsa kerak. Bu holda avtor o‘zining shu asarga atagan butun fikriy emotsiyal boyligini mutanosib ravishda taqsim etolmay qoladi. “Chinor”ning davomi yo‘q. Chunki uni bir kitoblik qilib jamalaganman” Asqad Muxtor nasrimiz vakillaridan asrimiz uchun hamisha yaxshi asarlar kutgan. Ayniqsa, millat taqdirini, uning buyuk orzu-armonlarini ro‘yi-rost so‘zlaydigan asarlar kutadi. Bundan tashqari, tarixiy asarlarda qahramonlarimizning o‘ta ideallashtirmay, u ham biz kabi inson bo‘lgani, ularniyam bizni qiyanagan ijtimoiy muammolar qiygani haqida ochiq yozishlarini istaydi. Lekin men tarixiy asar yozayapman ekan deb yostiqday-yostiqday, besh-olti jiddlab yozish shart emasligini uqtiradi. Axir bunda yozuvchi umri zoye ketgani yetmagandek, qog‘oz ham, kitobxon umri ham yaxshigina uvol bo‘ladi.

### Xulosa

Ijtimoiy-siyosiy hayotimizda olib borilayotgan ijobiy o‘zgarishlar buyuk ustozlar ijodini chuqur tahlil etishga yanada keng imkoniyat yaratdi. Shu jumladan, Asqad Muxtor ijodini ilmiy-nazariy, falsafiy, publitsistik yo‘nalishda xolis baholash imkonini beradi. Tundaliklar” turkumi lirik kundaliklar tarzida ko‘ngil izhori bo‘lishi bilan barobar. Ularda Asqad Muxtorning ijtimoiy-estetik qarashlari mujassamlashgan. Yozuvchining bedor qalbi, uyg‘oq tafakkuri, tug‘yonli kechinmalari adibning ijtimoiy ideali bilan badiiy-estetik qarashlarini o‘ziga singdirgan go‘zallik hodisasi sifatida qimmatlidir. Shaxs va jamiyat, olam va odam sir-sinoatlari haqidagi adib fikrlari she’riyatiga, adabiy-tanqidiy hamda publitsistik maqolalariga, poemalariga, qissa, hikoya va romanlariga zarrama-zarra singdirib yuborilgan. Ular nafaqat publitsistlarni, adabiyotshunoslarni, shuningdek, jamiyatshunos, siyosatshunos, faylasuf va tarixchi olimlarni ham qiziqtiradi.

Asqad Muxtor badiiy publitsistikada “Tundaliklar” bilan tub burulish yasay oldi. Va u kichkinagina maqola yozsa ham muallifning “nafasi”sezilib turishini istardi. Har bir ijodkor oddiy so‘zlovchidan so‘z sohibiga, undan esa so‘z san’atkoriga ko‘tarilishi uchun izlanishi, ko‘plab kitoblar o‘qishi lozim. Asqad Muxtor ana shunday so‘z san’atkori edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Asqad Muxtor. “Saylanma”. -Toshkent: “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi, 2020.
2. 1. Asqad Muxtor. “She’r – shoir vijdoni” Toshkent, 2012.
3. Temur Muxtorov “Cho‘qqining balandligi olisdan ko‘rinadi” “Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida” Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.
4. Mamamtqul Hazratqulov “Asqad aka” Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.
5. Alisher Ibodinov “Hayotimni o‘zgartirgan xat” Toshkent: “Ma’naviyat”, 2003.